



KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Raufova Movluda Nurxonovna

Toshkent Davlat Texnika Universiteti tayanch doktoranti

Tel:

Annotatsiya: Ingliz tili xalqaro doiradagi kommunikatsiya vositasi bo'lish bilan birga, ta'lim, kasb-hunar sohasida karyera qurishning eng muhim omillaridan biri ekanligi sir emas albatta. Ushbu maqolada o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda darsdan tashqari ta'limni tashkil qilish, yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda noan'anaviy o'yin usullaridan foydalanishga oid adabiyotlar tahlillari hamda shaxsiy fikr-mulohazalarimizga asoslangan tavsiyalarimizni keltirib o'tdik. Shuningdek turli grammatik, sintaktik va orfografik o'yinlardan misol tariqasida foydalanish yo'riqnomasi hal keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: darsdan tashqari ta'lim, yozish ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiya, grammatik punktuallik, nutqiy ehtiyoj, kognitiv faoliyat, interfaol o'qitish, individuallashtgan ta'lim.

Аннотация: Не секрет, что английский язык является не только средством международного общения, но и одним из важнейших факторов построения карьеры в сфере образования и профессиональной деятельности. В данной статье мы представили наши рекомендации, основанные на анализе литературы и личных наблюдениях, по организации внеклассного обучения английскому языку и использованию нетрадиционных игровых методов для развития навыков письма. Также были приведены инструкции по применению различных грамматических, синтаксических и орфографических игр в качестве примеров.



Ключевые слова: внеклассное обучение, навыки письма, коммуникативная компетенция, грамматическая пунктуальность, речевая потребность, когнитивная деятельность, интерактивное обучение, индивидуализированное обучение.

Annotation: It is no secret that English is not only a means of communication at the international level, but also one of the most important factors in building a career in the field of education and vocational training. In this article, we presented our recommendations based on literature analysis and personal opinions regarding the organization of extracurricular education in teaching English to students, the use of non-traditional game methods in developing writing skills. Guidelines for using various grammatical, syntactic, and orthographic games were also provided.

Keywords: extracurricular education, writing skills, communicative competence, grammatical punctuality, speech need, cognitive activity, interactive learning, individualized learning.

Globalalshuv davrida axborot almashishning asosiy vositasi bu yozish hisoblanib, masofaviy aloqalarni yo'lga qo'yishda xorijiy tillarda yozish ko'nikmalarini rivojlanganligi zarur ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Texnologiya asrida axborot hajmining muntazam oshib borishi, mintaqalararo ta'limiy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning asosiy vositasiga aylangan kompyuter aloqasining jadal rivojlanishi barcha faoliyat sohalarida yozma muloqotni birinchi o'ringa olib chiqdi. Shu munosabat bilan xorijiy tillarni o'rgatishda, o'rganishda yozish sohasidagi ko'nikmalarni uzluksiz rivojlantirib borish bugungi kun talabiga aylanib ulgurdi.

Kommunikatsiya vositalari nutq, mimika, pantomimika, yozma nutq turlari mavjud ekan, avvalo yozma nutq nim ava uning boshqa nutq turlaridan farqi afzalliklarini bilish maqsadga muvofiqdir. Yozish ko'nikmalarini rivojlantiirshga



oid tadqiqotlarda ko'rsatilishicha yozish ko'nikmasi quyidagi holatlar uchun juda muhim hisoblanadi:

- jamoaviy munosabatlarda kommunikativ ehtiyojlarni qondirish uchun (mail.ru, rasmiy xatlar, tabrik kartalari, formulyarlar, uy vazifalarini yozish kabi);
- ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlar (uy vazifalari, testlar, grammatika va so'z boyligi ustida ishlash uchun topshiriqlar, qaydlar qilish uchun);
- ilmiy tadqiqotlar va turli nazariyalarni ilgari surish uchun (ko'proq manbalardan ma'lumotlarni olish, o'rganish va bu orqali eslab qolishni rivojlantirish kabi);

Bundan kelib chiqadiki xorijiy tillar bo'yicha yozma nutq o'rganish va tadqiqotning asosiy vositasi ekan, biz yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz kerak:

- yozish jarayonida leksik, sintaksis va rasmiy nutqqa qat'iy amal qilish;
- og'zaki nutq singari tasvirlash va ifodalashga keng urg'u berish;
- yozma nutq to'g'ri va to'liq bo'lishi zarur, chunki yozma nutqda qayta so'rash va to'g'rilash imkoniyatlari cheklangan;
- barcha xorijiy tillarda ham gapirish ko'nikmasini egallaganlik, albatta yozish ko'nikmasiga ega ekanlikni anglatmaydi;
- yozish ko'nikmasi rejalashtirish uzluksiz davom etuvchi jarayon bo'lib, so'z boyligi, badiiy asarlar o'qish ijodiy fikrlash bilan uzviy bog'liq;
- yozish bu xorijiy til bo'yicha mavjud xatolarimizni to'g'rilash va o'z ustimizda ishlashning eng yaxshi usulidir;
- yozish ko'nikmasini shakllantirish orfografik, so'z boyligi, pragmatika (murojaat) kabi masalalarda uchraydigan muammolarni hal qilishda yordam beradi.[1].

Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lib, ularni bartaraf qilish chet tili o'qitish metodikasi oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi. Kasb-hunar bilim



yurtlarida chet tillarini, shu jumladan ingliz tilini o'rganishning yetakchi maqsadi, bir tomondan, o'rganilayotgan tilda og'zaki va yozma nutqning muloqot va ko'nikmalarini shakllantirish, ikkinchi tomondan xalqaro mehnat bozori talablariga moslashish, xorijiy mamlakatlarda ham o'z kasbi bo'yicha munosib ish o'rinlarini egallash, shaxsiy karyerasini qurishdir. I.B.Ignatova yozish ko'nikmasi faqatgina mashg'ulotlar jarayonida doimiy nutq amaliyoti natijasida shakllanishi mumkinligini ta'kidlaydi[2]. Chet tilida yozish ko'nikmasini rivojlanishi germevntik xususiyatga ega, ya'ni turli ilmiy, badiiy matnlar ustida ishlash, shuningdek umumiy uslubiy va xususiy didaktik prinsiplarni hisobga olgan holda o'zaro bog'liq bo'lgan publistik matnlarni tanlash, ular orasida mavjudlik, qiziqish tamoyillarini inobatga olish o'quvchilarda yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning asosidir.


Chet tili darslarida yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarini olib borgan O.S.Axmanova, I.A.Zimnaya, I.B.Ignatova, O.N.Proxorovalar chet tili darslarida o'quv matni bilan ishlash - o'qish, tarjima qilish, takrorlash, tinglash, o'qilgan matn bo'yicha suhbat va uni muhokama qilish kabi turlarda bo'lishini sanab o'tishadi. Shu bilan birga, o'qitish jarayonida yozma kommunikativ nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi va kognitiv faoliyatning elementi sifatida o'qishga yetakchi o'rin berishadi.[3].

Kasb-hunar o'qitishga asoslangan ta'lim muassasalarida o'quvchilari orasida ingliz tili o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borishi bu borada o'qituvchilardan katta mas'uliyat talab qiladi. O'quvchilar uchun o'quv metodik bazani shakllantirish, rivojlantirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Ma'lumki, o'quvchi dars mashg'uloti, sinfdagi harakati bilan ko'zlangan maqsadga to'liq yeta olmaydi. Albatta, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham yo'lga qo'yilishi mabjud kamchilikni baratarf etishda zarur. Bu borada, darsdan tashqari o'qish uchun interaktiv ish daftaridan foydalangan holda o'quvchilarda yozish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati mavjud.



O'quvchilari uchun madaniyatimiz, tarixiy qadriyatlarimizga asoslangan ingliz tilidagi milliy contentlarni ishlab chiqish va ingliz tilidagi adabiy asarlar, ularning o'quvchilarning ona tillariga tarjimalari, yangi lug'at va tarkibni birlashtirish uchun turli xil mashqlar va boshqa interaktiv usullarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. "Kasb-hunar maktablarida chet tillarini, shu jumladan ingliz tilini o'rganishning yetakchi maqsadi o'rganilayotgan tilda og'zaki va yozma nutqning muloqot va ko'nikmalarini shakllantirish, lingvistik-madaniy kompetentsiyani rivojlantirishdir"[4]. Shu bilan birga, chet tilini o'rganishda eng muhim bo'g'in sifatida yozishga alohida e'tibor beriladi.

Ma'lumki, sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarning qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarni kitoblarni mustaqil tanlash va o'qishga tayyorlashni, ya'ni bolalarning to'g'ri o'qish va yozish faoliyatini (o'qishdan oldin, o'qish paytida va undan keyin kitoblar haqida o'ylash qobiliyati va odati) va o'quvchining dunyoqarashini doimiy ravishda yaxshilashga qaratiladi. Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish natijasi ko'proq o'quv vositalariga bog'liq. Sinfdan tashqari o'qish darslarida siz o'quvchilarning bilim faolligini oshiradigan turli xil texnika va usullardan foydalanishingiz mumkin.



1-rasm. Ingliz tilini o'qitishda darsdan tashqari ta'limni rivojlantirish



Ushbu o'quv vositalaridan biri interaktiv yozuv kitobi bo'lishi mumkin. Ishning dolzarbligi o'quvchilarning o'quvchilar uchun ingliz tilida interfaol materiallarning yo'qligi bilan bog'liq. Interfaol ta'lim texnologiyalari - bu bolalarning bilimlarini rag'batlantirish va individuallashtirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va qulay hissiy muhitni yaratishning samarali usullaridan biridir.

E.V.Fedotkina o'qish shartlariga asoslanib, "o'qish kabi yozishning ham kichik juftlashgan usulini ishlab chiqish zarurligini" ta'kidlab:

- matn bilan ishlash usuli va tabiati bo'yicha individual yozish va juftlikda yozish;
- yozish jarayonida o'quvchilarning mustaqil anglash darajasiga urg'u berish va matnlarni shunga xos tarzda tayyorlash;
- fonetik va orfografik tahlillarga asoslanib qisman va to'liq lug'atsiz yozish;
- yozish jarayonida ona tilining ishtirokiga va o'qishni tushunishni tekshirishga qarab-tarjimasiz va tarjima qilingan yozish"[5].

O'quvchilarning yozma malakalari ko'pincha nutq faoliyatining boshqa turlari bo'yicha o'rganish darajasidan ancha orqada qoladi. Maktub uch qismli tuzilish bilan tavsiflanadi: rag'batlantiruvchi-motivatsion, analitik-sintetik va ijro etuvchi. Yozma nutqni o'rgatishning maqsadi o'quvchilarning yozma kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat bo'lib, u yozma belgilarga ega bo'lishni, yozma nutq ishining mazmuni va shaklini o'z ichiga oladi. Yozma nutqni o'rgatishda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar yozma nutqni o'rgatish mazmunini o'zlashtirish uchun sharoit yaratish bilan bog'liq. Demak, yozishni o'rgatish nutq faoliyatining boshqa turlarini nutq va o'qish bilan o'rgatish bilan uzviy bog'liqdir. Yozma nutq sizga lingvistik va faktik bilimlarni tejash imkonini beradi, fikrlash uchun ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi, chet tilida gapirish, o'qish va yozishni rag'batlantiradi.



Yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda grammatik o'yinlar muhim zarur grammatik tuzilmalarni qo'llashni o'rgatish uchun o'tkaziladi. Bunday o'yinlarga ko'pincha **“to be, to have, may, must, can”** fe'llaridan foydalanib gaplar tuzish, **“there is, there are”** iboralarini gaplar orasida to'g'ri qo'llay olish kabi yo'nalishlar tanlab olinadi. O'yinlar musobaqa tarzida o'tkazilib, ularda boshlovchi va ishtirokchilar, faol va nafaollar belgilab olinadi.

Xatolarsiz yozish ko'nikmasi yozishga qo'yiladigan eng muhim talab hisoblanib, grammatik o'yinlar o'quvchilarni talaffuzi va yozma nutqini hamkorlikda mashq qildirish, talaffuz qilish va yozishdagi farqlarni asoslashga o'rgatishda ishlatiladi. Bunda o'quvchilar she'r yoki matnni yodlab aytib berishadi, so'ng uni xatosiz yozish musobaqasi o'tkaziladi.

1.Kim [c va k] tovushlari bor so'zlardan ko'proq, tez, to'g'ri yozadi, bunda 2 yoki 3 o'quvchi qatnashishi mumkin.

2.Kim [d va t] tovushlari bilan tugaydigan so'zlarni ko'p, tez, to'g'ri yozadi.

3.Chet tilida 1 o'quvchi she'r aytadi, boshqa o'quvchi uni yozib berishi kerak bo'ladi.

Orfografik o'yinlardan asosan yozuvni o'rgatishda foydalaniladi. Bunday o'yinlarni ham turi ko'p bo'lib, men quyidagilarini aytib o'tmoqchiman:

1.O'qituvchi 2 ta o'quvchini qo'liga alohida qog'ozga yozilgan harflarni berib, “pencil” deydi, kim tez doskaga borib shu so'zni yozsa, u g'olib sanaladi.

2.Doskada so'zlarni bitta bosh va oxirgi harfini yozib to'ldirish.

3.Kim ko'p so'z yozish kabilar.[6]

Chet tili darslarida yozish ko'nikmasini rivojlantirish kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchi bosqich mashqlarni taqsimlash, tayyorlash, boshqarish, boshqa ko'nikmalar (eshitib tushunish, o'qib tushunish, gapirish, grammatika, so'z boyligi, talaffuz)ni baholash.



Ikkinchi bosqich esa aynan faqat yozuv ko'nikmasini rivojlantirish bosqichi hisoblanadi.

Yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun bir necha mashqlar tipologiyasini keltirish mumkin. Unga oid eng yaxshi ma'lumotlarni E.V.Musnitskayava N.I.Gezing "The development of written speech skills of students of non-language institutes of higher education (in nonlanguage specialties)" nomli asarida o'qish mumkin. Unga ko'ra: Tayyorlovchi mashqlar – bunday mashqlar aynan yozish ko'nikmasi uchun maxsus mo'ljallanmagan bo'lib, kelgusida yozish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan: So'z boyligini ustida ishlash, uni kengaytirish, mustahkamlash, mavjud bilimlarni faollashtirish, iboralarni mustahkamlash, to'g'ri yozish mashqlarini amalga oshirish kabi. Bunday mashqlar o'yin sifatida ham amalga oshirilishi mumkin.

Bu o'yinlar ham musobaqa tarzida o'tadi. Hozirgi paytda ingliz tilini o'rgatishda rolli o'yinlardan keng foydalaniladi. Ular oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda, qiziqtirishni orttirishda, darsga jalb qilishga salmoqli ijobiy yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Bashmakova I.S. On the formation of professional communication skills in a foreign language among students of non-linguistic universities. // Bulletin of the Moscow State University. - M., 2021. Issue 477.
- 2.Ермаков В.Л. Внеклассное чтение как методическое средство мотивации к обучению в процессе изучения английского языка в средней школе. Известия Тульского государственного университета. 2012; № 3: 354-365.
- 3.Ботирбекова, Г. А., &Иргашева, У. Р. (2020). Роль самостоятельной деятельности студента в процессе обучения. Наука и образование сегодня, (1 (48)), 34-35.



- 4.Игнатова И.Б., Андреева С.М. Коммуникативная культура языковой личности студентов-филологов./ М-во образования и науки Рос. Федерatsii. Белгород: Белгор. гос.ун-т. 2004. 197с.
- 5.Леонтев А. А. Психолого-педагогические основы обновления методики преподавания иностранных языков: лекция-докл. М., 1998. 24с.
- 6.Zaripova R.A. “Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma” - T.:O‘qituvchi, 1986 yil.

Internet saytlari

7. <https://lex.uz/uz/docs/-5831978?ONDATE=23.12.2024%2000>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-rganishda-og-zaki-nutq-konikmalarini-rivojlantirishning-ahamiyati>
9. <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/79>